

TONG yulduzi

№38 (66423)

2003 yil

29 sentabr

dushanba

Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarilgan

Muallim... Naqadar ulug' siymo! Yuzu ko'zidan xuddi oftob mehri yog' ilayotgandek. Bugun har kungidan barvaqt turib maktab ostonasiga qadam qo'yarkanman, ko'nglim allanechuk hayajonga to'lib ketdi. Axir quvonmay bo'ladimi, qo'limdagi bir dasta oppoq chinigullarni avaylab bag'rimga bosarkanman, sevimli muallimam Muhabbat opamni beixtiyor shu gullarga qiyoslagim keldi. Hozir ularga shu guldastani tutamanu go'yo olam gullarga to'lib ketgandek bo'ladi. Shirin xayollar bilan sinfga kirsam, birgina men emas, barcha sinfdoshlarim dasta-dasta gul ko'tarib olishibdi. Ha, Muhabbat Narzullayeva bizga qalb qo'rini, ko'z nurini berib, «Alifbe»dan harf tanitdi. Har birimizga o'qish, yozishni o'rgatdi. Muallimam xuddi onajonim kabi muloyim, dilimizdagini ko'z qarashimizdan anglar edi. Maktabdan uyimizgacha bo'lgan

SIZ PADARSIZ, VOLIDASIZ AZIZ MUALLIM!



masofa ancha olis bo'lganligi bois o'zim yolg'iz uyimizga ketolmasdim. Shu sababli akam o'qituvchilaridan ruxsat so'rab, meni sinfga olib kirar va jimgina o'tirgin, deya eng oxirgi partaga o'tqizib qo'yardi. Qiziquvchanligim bois ularning darslariga ham quloq solardim. Rajabboy G'iyosov, To'lqin Karimov kabi ustozlarning berayotgan saboqlarini sinfdagi opa-akalarim jon qulog'i bilan tinglashardi. Minglab savollar, qiziqarli bahs-munozaralar qo'ng'iroq chalinganda ham davom etaverardi. Yuqori sinf o'quvchilarining buncha ko'p narsani bilishiga havasim kelar, ularday bo'lishni orzu qilardim.

Samarqand viloyatining Oqtosh shahridagi Alisher Navoiy nomli 64-o'rta maktabda ana shunday mehdaryo ustozlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Sevimli gazetam «Tong yulduzi» orqali ustozlarimni bayram bilan qutlayotganimdan qalbm g'uruga to'lmoqda.

Mohinur HAYDAROVA, o'quvchi.

Bo'sh vaqtim - xush vaqtim

BEKORCHILIK BIZGA BEGONA

Bizning maktabda o'quvchilarning bo'sh vaqtiga katta ahamiyat beriladi. Bu borada fan va ijodiy to'garaklar, sport mashg'ulotlari tashkillangan. O'quvchilarning 75 foizi ana shu to'garaklarga jalb qilingan.


To'garak rahbarlari bolalarni qiziqtirish uchun turli tadbir va tanlovlar o'tkazadilar, uchrashuvlar uyushtiradilar.

Jumladan, «Tikuvchilik», «To'quvchilik» hamda «Badiiy mehnat» to'garagi a'zolari har oyda o'zlari tayyorlagan milliy kiyimlar va boshqa ijodiy ishlarining ko'rgazmasini tashkillaydilar.

«Badiiy havaskorlik va raqs» to'garagi a'zolari esa «San'at bayrami», «Qo'shiqlar bayrami»da faol qatnashadilar.

Yaqinda «Tasviriy san'at» to'garagi a'zolari «Nafosat» ko'rgazmasini tashkil etdi. Ko'rgazmada 5-11-sinf o'quvchilari tomonidan chizilgan rasmlar namoyish etildi. 9- «A» sinf o'quvchisi Dadaxon Yusupov «Men sevgan qushlar» mavzuidagi rasmlari bilan qatnashib, birinchi o'rinni egalladi. 7- «A» sinf o'quvchilari Ulug'bek Tolipov, Mohidil Turg'unboevaning chizgan rasmlari barchaga ham ma'qul bo'ldi.

«Zakovat», «Qizlar» klubi



a'zolari ham har oyda bellashuv o'tkazishyapti.

Tashkil bo'lganiga besh yil bo'lgan «Qizlar» klubiga «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, maktab xotin-qizlar qo'mitasi yaqindan yordam berayapti.

Maktabning jismoniy tarbiya o'qituvchilari ham ko'plab sport musobaqalarini uyushtiryaptilar. Bu esa o'quvchilarning yanada sog'lom bo'lishiga, fikr doiralari kengayishiga sabab bo'lmoqda.

Ana shunaqa gaplar. Bekorchilik bizga begona. Chunki maktab rahbari hamda bolajon pedagoglarning maqsadi o'quvchilarni bilimdon va zukko bo'lishi, ularning bo'sh vaqtlarini maroqli va mazmunli o'tishiga qaratilgan.

Zarifa HAMIDJONOVA,

Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi 2- maktab yetakchisi.

Bolaligimda kattalar o'tmishda bo'lib o'tgan voqealar haqida gapirishsa, so'zlarining ma'nosiga tushunolmay qiynalardim. Sevimli bobojonim esa menga ko'p narsalar haqida gapirib, hech erinmasdan ularning ma'nosini tushuntirib berardilar...

Bolalikni tark etib, endi ko'p narsalar haqida mulohazali fikr yuritadigan, mag'zini chaqa oladigan bo'lib qoldim va o'zim tug'ilib o'sgan mahallam tarixi bilan qiziqdim. Bunda yana bobojonim yordamga keldilar. Qadimda poytaxtning 12 ta darvozasi bo'lib,

MO'JAZ VATANIM - OBOD MAHALLAM!

ular turlicha nom bilan atalgan ekan. Oradan ko'p yillar o'tsa hamki, ularning nomlari saqlanib qolgan. «Samarqand Darvoza» mahallasi 1893 yilda tashkil topgan bo'lib, mahalla hududida qadimiy darvozalardan biri «Samarqand darvoza»si joylashganligi uchun «Samarqand Darvoza mahallasi» deya nomlanarkan. Mahalla aholisi asosan o'zbeklar bo'lib, ular dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan.

Respublikamiz Mustaqillikka erishgandan so'ng, mahallada ramziy Samarqand darvoza qad rostladi. Mahalla fuqarolari esa o'zlarining kichik Vatani, mahallalarini obod etish uchun keksayu yosh hamjihat bo'lib ter to'kmoqda. Bizning bu go'zal mahallamizda sevimli adibimiz Abdulla Qodiriy yashab, ijod etganlar. Shu bois bu yerda bobomizning uy muzeylari tashkil qilinib, bizning 13-maktabimiz ularning nomlari bilan ataladi. Ilm dargohimiz o'quvchilari ham, o'qituvchilari ham hamisha buyuk adibning boy merosini o'rganishga intilishadi.


«Vatan avvalo mahalladan boshlanadi», buni mahallamizda istiqomat qilayotgan yoshu qari yaxshi tushunishadi. Shu sababli, erta bahordanoq hashar uyushtirilib, qarovsiz joylar tozalani, turli xil daraxtlar, gullar ekildi. Obodonlashtirish ishlarida bosh bo'lgan keksa otaxon va onaxonlarimiz shunday deyishdi: «Bu mahallada yirik adabiyotshunos Abdulla Qodiriy kabi ziyoli kishilar va olimlar yashab o'tganlar. Hozir va bizdan keyin ham mahallamizga dog' tushirmasdan, avaylab-asrashingiz shart». Bu o'gitga yoshlarimiz hamisha amal qilishadi.

Nargiza VALIYEVA,

Toshkent shahridagi 13- maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

BOLALIK O'ZGARMAYDI

Umr daryosi buncha shoshib oqmasa, kechagina sho'x-shodon bolalikning, beg'ubor, ammo quyoshdek qaynoq taftidan bahra olardik. Hayot bog'ida bir mitti kapalak edik, u guldan bu gulga qo'nib, hayotni o'zimizdek beg'ubor, sodda tasavvur etardik. Bu hayot yo'llarini faqatgina yangi chiqqan maysalardan iborat, deb o'yildik. Ammo... yo'lingizda shunday sahro cho'llar uchrar ekanki, o'z-o'zingdan bolaligingga qaytging kelib ketarkan.



Tong. Ko'zingni ochasan-u miyagda hayot tashvishlari yana charx ura boshlaydi. Endi sen kichkintoy qizaloqlardek bog'chaga shoshilmaysan va ulardek tashvishsiz yasholmaysan.

Ba'zan bolaligimizni qumsab, kichkintoylarni kuzatib qolamiz. Bolalik hech qachon o'zgarmaydi. U bizda qanday kechgan bo'lsa, hozir kichkintoylarda ham xuddi shunday kechmoqda.

Nega ulg'aygach hamma o'zgararkan-a? Bolalikdagi tuyg'ular ba'zilar umuman yo'qolib ketadi. Masalan: soddalik va beg'uborlik.

Eh... qaniydi hamma bolalikda qanday bo'lsa, katta bo'lib ulg'aygach ham bolalikdagi shunday sodda, sof tuyg'ular bilan yashasa!

Nigora BONU,

arab tiliga ixtisoslashgan 29-maktab o'quvchisi.

Zarifaxon, qo'lingdagi
koptok menga yer sharini
eslatib, xayolimni
kelajakka olib ketdi.
Bugun koptok tutgan
qo'llaring ertaga dunyoni
tutsa, ne ajab!..



BU MEN TUG'ILGAN TUPROQ

Tarixsiz kelajak yo'q. Odamzod borki, avlodlarini kimligini, qayerda tug'ilib o'sganligini va vatanining tarixini bilishni istaydi.

Vatanimiz tarixda Turon, Turkiston, Movarounnahr nomlari bilan atalgan. O'sha vaqtlarda To'maris, Shiroq, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdilar ajnabiy xalqlarga qarshi kurash olib borganlar.

Mustaqillikni orzu qilib Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Furqat kabi ulug' yozuvchi va shoirlarimiz ko'plab asarlar bitganlar.

Mana, ular orzu qilgan kunlarni biz kelajak avlod ko'ryapmiz. Biz mustaqil bo'lishimiz bilan birga o'z tilimizga, dinimizga, madhiyamizga, bayrog'imizga ega bo'lish bilan birga unutilib ketayotgan milliy urf-odatlarimizni tikladik.

Kelajak avlod yaxshi bilim olib, yurtimiz ravnaqiga ravnaq qo'shishsa, ayni muddao bo'lar edi.

M.ABDULLAYEVA,
Andijon viloyati, Andijon
tumanidagi Zavroq qishlog'i.

MAKTABDAGI SHODIYONA

Maktabimizda har bir bayram, tantana va o'ziga xos shodu hurrampik bilan o'tkaziladi. Bu bayramlar sirasida 1-oktyabr ham bor. Bu kun qanday bayram ekanligi hammamizga ma'lum. Bayramda o'quvchilar o'zi qobiliyatlarini ustozlariga ko'rsatishga harakat qilishadi. Ustozlarimizning yuzlaridagi samimiy tabassumni ko'rib, ko'nglimiz ko'tariladi. Har yili bayramni har xil qilib o'tkazishga harakat qilamiz. Yangi-yangi sahifalar ochamiz va albatta bu sahifalar ustozlarimizga yoqadi. Maktab sahnasiga chiqib, hayajonlanayotgan o'quvchilarni ko'rib, o'zimizni ham hayajon bosaveradi. Bu bayram dasturini ham qoyilmaqom qilib tuzib qo'yanmiz. O'ylaymanki, bayram dasturimiz boshqalaridan umuman farq qiladi. Ustozlarimizga albatta yoqadi, degan umiddamiz. Maktabimizda jon kuydirib dars berayotgan bir qator ustozlarimiz,

avvalo maktabimiz direktori Mavluda opani, ustozlardan Dilorom opani, Shoira opa, Zulxumor opalarni bayramlari bilan qutlaymiz. Ularga sog'liq salomatlik, kelajakda orzu umidlari yor bo'lishini tilab qolamiz.

Volida

TO'LAGANOVA,
Yunusobod
tumanidagi 273-litsey-
maktabning 9- «A»
sinf o'quvchisi.

BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA!

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi... Maqsadimiz, bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

BAHOUDDIN NAQSHBAND

Bahouddin Naqshband 1318 yilda Buxoro yaqinidagi qishloqda tug'ilgan.

Bahouddinning ma'nosi nur, yoritmoq va dinning toza degan ma'nolarini anglatadi. Uning oilasining laqabi Naqshband bo'lgan.

Uni mashhur diniy kishilar o'qitgan. U Muhammad Amir Said Kulolni yoqtirgan, Mavlono Orif Pekkirovi, Qusam Shayx va Halil Otalardan ta'lim olgan.

U ko'p narsalar yozgan, lekin ular saqlab qolinmagan. Naqshbandning g'oyasi «Hayotnoma» va «Dadil al - oshiqin» ishlarida aniq ko'rinib turgan.

Naqshband Abduholiq G'ijduvoni va Ahmad Yassaviyning g'oyasini rivojlantirdi, lekin u o'zining g'oyasiga ega edi.

Uning g'oyasi «Naqshbandiya» deb nomlangan. U boyliklardan voz kechgan. U kambag'al bo'lishni va oddiy yashashni yoqtirgan. Uning mashhur g'oyalaridan biri: «Yuragingda Oллоhni saqla va qo'ling mehnatda bo'lsin». U hayoti davomida Makkaga 2 marotaba safar qilgan (ya'ni Makkani 2 marotaba ziyorat qilgan).

U 1389 yilda, 73 yoshida tug'ilgan qishlog'iga dafn qilgan.

«English for Everyone» kitobidan.
Buxoro viloyati, G'ijduvon
tumanidagi 49 - maktab o'quvchisi
Marg'uba HAYITOVAning ingliz
tilidan tarjimasini.

Olti yasharlik Shahzod borayotgan musiqa maktab Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan. Uning rahbari Bondar Boris Yakovlevich mana 20 yildan buyon fortopiano sirlaridan o'quvchilarni voqif qilib kelmoqda. Uni bayram bilan tabriklab, suhbatga tortdim.

-Bizda 250 nafar o'quvchilar ta'lim oladi. Fortopiano, skripka, bayanoakkordion, puflab chaladigan cholg'u asboblari va o'zbek milliy cholg'ulari bo'limlarimiz faoliyati ko'plab mutaxassislarni o'ziga jalb qilmoqda. Chunki maktabimiz o'quvchilari har yili tanlov va festivalda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallashadi. Aksariyat o'quvchilarimiz oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgan. Ularga juda tajribali o'qituvchilardan Lidiya Mayorova, Natalya Chutsina, Solovyov Valeriy Yegorovich, Sa'dullo Mirhodiyev, Nisso Xalilova, Toir Isoqov, Malohat Agayeva, Tatyana Mirojnichenko, Zumrad Asilova, Husan Nosirov, Marg'uba Shukurova, Murod Haitovlar saboq berishadi. O'qituvchilarimiz o'ta fidoiy. Ularga rahbariyatning nazorati shart

KO'NGILNI TIRNAYDI BU AJIB SKRIPKA

emas. Hatto dam olish kunlari ham maktabimizda kuy ovozi yangrab turadi.

O'zbek milliy cholg'u bo'limi boshlig'i Toir Isoqov o'zining talabchanligi va mas'uliyatliliigi bilan ajralib turadi. U o'quvchilarni san'atga shunday sehrlab qo'yadiki, natijada o'quvchilar biror soat ham dars qoldirmay, to'liq ta'lim olib, bitiradilar.

Musiqa teoriyasi - Solfejiodan ta'lim berayotgan Malohat Agayeva o'quvchilari esa Respublikamiqyosidagi tanlovlarda muntazam yuqori o'rinni egallashadi. U teoriya bo'yicha kuchli mutaxassis. Shuning uchun bo'lsa kerak, san'at ixlosmandlari soni tobora ortyapti.



Ayniqsa, bugungi kun yosh avlod qobiliyati dunyoni qoyil qoldirayotgani hech kimga sir emas. Tinchlik timsoli bo'lmish san'atda o'zini sinab ko'rgan odamda yomonlik bo'lmaydi. Uning qalbi yaxshilikka oshnodir.

O'zingiz ko'rib turganingizdek, yangi o'quv yilini yangi ta'mirlangan binoda boshladik. Ta'mirni Nodira Hamroyeva rahbarligidagi «Nidi» firmasi amalga oshirdi. Issiqlik quvvati ham yangidan tiklandi. O'quvchilarimizga qo'limizdan kelgancha sharoit yaratmoqdamiz...

Darhaqiqat, zahmatkash ustozning gaplarida jon bor. Barcha sharoitlari muhayyo, cholg'u asboblari serob musiqa maktabida har kuni ish qizg'in. Hayot qaynaydi. Buloq ko'z ochadi. Ko'ngil criydi.

Fursatdan foydalanib, jamiki ustozlarni ayyom bilan qutlayman. Ishlariga baraka, o'zlariga metin iroda va sog'liq tilayman.

Muharrama
PIRMATOVA.

**Men o'tirgan shu partalarda,
Kimlar sizga maftun boqmagan.**

Bu naqlni xalqimiz ko'p marotaba ishlatadi. Ustozlar haqida qancha gapirsak, shuncha oz. El tanigan Alisher Navoiy ham ustozlarga atab:
*Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,
Aylamak oson emas, oning haqqin yuz ming ganj ila,-
deb bejiz aytmaganlar.*

USTOZ OTANGDEK ULUG'

HAMMA BAYRAM QILADI

Ustozlar kunini mamlakatimizda hamma bayram qiladi. Prezidentimizning ustozlarga bunday g'amxo'r bo'lishlariga asos bor albatta. Chunki ustozlar O'zbekistonning kelajagi bo'lgan, Prezidentimiz ishonch bildirgan o'g'il-qizlarni tarbiyalashadi. Bizning maktabimizda ham bir necha yillardan buyon o'quvchilarga ta'lim berib kelayotgan ustozlar talaygina. Ularni fursatdan foydalanib, maktabimizning barcha o'quvchilari nomidan tabriklayman. Shuningdek, mening oyijonim ham shu maktabda bir necha yillardan buyon ingliz tilidan saboq berib keladilar. Ularni ham o'zim va oilamiz nomidan tabriklayman. Bayramingiz muborak, ustozlar, ayyomingiz muborak, oyijon!

**Azizbek QAHRAMON o'g'li, Parkent tumanidagi
27-o'rtta maktabning 8-sinf o'quvchisi.**

Ha, hatto Alisher Navoiydek buyuk zotlar ham ustozlarini hurmat qilishgan. Ustozi nima desa, o'shani qilishgan, ularning yo'riqlaridan chiqishmagan.

...Bir kuni Amir Temur lashkarlari bilan bozor aylanishga chiqibdi. Bozorda yurganlarida ular bir kimsaga duch kelishibdi. Unga yaqinlashganda, Amir Temur bir bor entikib ketibdi va otidan tushib, haligi kishiga ta'zim qilib, qo'llaridan o'pibdi...

Bu holni kuzatib turgan olomon hayron bo'libdi. Butun shaharni zir titratgan jahongir nima uchun faqirgina bir odamning qo'lini o'pib, unga ta'zim qilgani hammani taajjubga solibdi. Shunda Amir Temur baland ovozda:

-Ey, xaloyiq, bu kishi meni yoshlikdagi ustozim bo'ladilar. Ularning sharofati tufayli men shu darajaga yetib keldim. Shuning uchun ham bu kishi

AZIZ USTOZIM

Ko'zlarimga dunyo tanitgan,
Mehribonim, aziz ustozim.
Har lahzamga quvonch baxsh etgan,
Ming tashakkur sizga, ustozim.

Men o'tirgan shu partalarda,
Kimlar sizga maftun boqmagan.
Mehri to'la so'zlaringizdan,
Kim daryoday to'lib oqmagan.

Tanitdingiz dunyo sirlarin,
Alifbedan kalomga qadar.
Tutqazdingiz dunyo kalitin,
Noshudlikni quvdingiz badar.

Siz - hayotga uyg'otgan havas,
Mehridaryo aziz ustozim.
Meni qizim atasangiz, bas,
Jaranglasa jo'shqin ovozim.

**Feruz QURBONOVA,
Denov shahridagi 84-umumiy o'rtta
ta'lim maktab o'quvchisi.**

oldida boshim doim egik va istardimki, hammangiz o'z ustozingizni ana shunday hurmat qiling,- deb so'zini tugatgan ekan.

Zero, jahon tanigan barcha olimu fuzalolarni ham Ustozdek tabarruk zot tarbiyalagan. Ana shuning uchun ham ustoz otangdek ulug', deyshadi.

Shahrimizning Yunusobod tumanidagi 143-maktabning mehribon, fidoyi ustozlari! Xususan, bu yil birinchi sinflarga ta'lim berayotgan, ularni o'z farzandidek suyib, erkalab o'qitayotgan Ra'no opa Abdullayeva va Musallama opa! Sizlarni bayramingiz bilan chin ko'ngildan muborakbod etamiz. Kelajakda bilimli, yurtiga sidqidildan xizmat qiladigan o'quvchilarning orzu-umidlari sizlarning qo'lingizda.

Sharafli, mas'uliyatli ishingizga rivoj, o'zingizga esa kuch-g'ayrat tilaymiz. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda aslo charchamang.

**Bir guruh ota-onalar nomidan Ozoda
TURSUNBOYEVA.**

MA'RIFAT HIMOYACHISI



Ustoz! Bu so'z aytilganda avvalo tasavvurimizda ma'rifat himoyachilari, ahli donishlar gavdalanadi. Shu tufayli ham otadek ulug', deya e'zozlanadi. Ilm dunyosining zabardast ustunlari ular...

Parkent tuman markazida joylashgan Bolalar va o'smirlar ijodiyot markazida ana shunday fidoyi ustozlardan biri Pokiza Akramovna qariyb 20 yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Uning tadbirkorligi bois hozirgi kunda bu maskanda 14 ta to'garak faoliyat ko'rsatadi. Men ham shu markaz qoshidagi «Zukkolar» to'garagining a'zosiman. Har birimizning sevimli maskanimizga aylangan bu qadrdon dargoh doimo yoshlar bilan gavjum. Raqs xonalarida xirom etayotgan qizaloqlaru zavq-shavq bilan rasm chizayotgan bolakaylarni ko'rib, ularga havasingiz

keladi. Bu jaji bolajonlarning murg'ak qalblari shijoatga to'la.

Ha, Bolalar va o'smirlar ijod markazida mehnat qilayotgan barcha ustozlarimni bugungi bayramlari bilan qutlayman. Bizning baxtimizga yurtim ustozlari mudom omon bo'lishsin!

**Sadoqat DADAYEVA,
Toshkent viloyati,**

Parkent tumanidagi 1- o'rtta maktabning 9-sinf o'quvchisi.

Ustoz! Bu nom dunyodagi eng muqaddas nomlardandir. O'sha qalbidaryo insonlar emasmi, qo'limizga qalam tutqazgan, erkalgimizni ko'targan, sho'xliklarimizga bardosh bergan. Ustozlarimiz bizni o'z farzandlaridek yaxshi ko'radilar. Quvonchimizdan quvonadilar, shodligimizdan shodlanadilar. Onadek bizning yaxshi-yomon kunlarimizga sherik bo'ladilar. Shu o'rinda maktabimiz rahbari Mukarram opa boshchilik qilib kelayotgan jamoa a'zolariga ya'ni ustozlarimizning alohida g'amxo'rliklarini aytib o'tsam arziydi. Ular barchaga barobar mehr bera oladigan, fidoyi, sevimli kasblariga sadoqatli insonlardir.


«ONAJONIM» - USTOZIM!

Bizlarni bilimli va zukko bo'lishimiz uchun tinmay izlanayotgan ulug' zotlardir.

Ushbu qutlug' kunda barcha ustozlarni, xususan, bizni o'qishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib berayotgan Mukarram opa, Manzura opalarni kasb bayramlari bilan qutlayman!

Kelajakni buyuk ko'ray,
Yurti yana ulug' ko'ray.
Millatimni suyuk ko'ray,
Desang, qo'lla muallimni

O'zbek degan o'zligingni,
Mard, tanti bir so'zligingni.
Doim yorug' yuzligingni,
Desang, qo'lla muallimni.



**Munisa UBAYDULLAYEVA,
Toshkent shahridagi 97-maktabning
6-sinf o'quvchisi.**

Ko'chaning o'rtasida qo'lidagi «Alifbe» kitobini tomosha qilib ketayotgan bolani ko'rib hayron qoldim. Chunki 1-sinf o'quvchilari kitobdan ko'ra ko'proq o'yinga qiziqadilar Astagina bolakayning oldiga bordim-da, ur savolga tutdim:

-Qiziq kitob ekanmi?

-Ha, -dedi u menga e'tibor ham bermay.

-Rasmlari judayam chiroyli ekan-a?

-Harflari undan ham chiroyli. Bu kitobni menga sovg'a qilishganda unchalik xursand bo'lmagan edim. Ichidagi suratlarni harflarni ko'rib «Alifbe»ni yana ham yaxsh ko'rib qoldim.

-Kel, tanishib olaylik...

-Ustozim Surayyo opamlarga o'xshab siz ham darrov ism va familiyamni so'raysiz, bilaman. Chunki maktabga chiqqanimda ustozim bizga o'zimizni qanday tanitishni o'rgatdilar.

UCH BUYUK HARF

-Xo'sh, qanday ekan?

-Men Islombek Usmonbekov, yoshim yettida, latim o'zbek, 122-maktabning 1- «A» nfida o'qiyman.

-Ustozing juda ko'p narsalarni o'rgatibdilar-da?

-Ha, hozir harflarni o'rgatishni boshladilar. Ularni bir-biriga qo'shib o'qiyapmiz.

-Maktabda o'qish qiyin emasmi?

-Yo'q, 1-sinfga chiqish mazza ekan. Maktabga chiqqanimda sinfdoshlarimizning mmalariga sovg'alar berishdi. Sovg'ani bizga

Islom bobomiz faqat yaxshi o'qinglar, deb beribdilar. Buni biz ustozimizdan bilib oldik. Endi faqat yaxshi o'qishga harakat qilyapman.

Sovg'alar - o'yinchoqlarmi?



1-sinfga qadam

-Yo'q, biz endi yosh bola emasmiz. Sovg'a bu - maktab sumkasi, uning ichidagi daftarlar, chiroyli kitoblar, ruchka, qalam, o'chirg'ich, rangli bo'yoqlar, plastilin va boshqa narsalar.

-Qaysi harflarni o'qishni o'rgandinglar?

-«Alifbe» kitobimizdagi «A», «O», «N» harflari juda buyuk harflar ekan. Mana, qarang, bu «A» harfi, bunisi esa «O», «N». Shu uchta harfdan men o'zim sevgan insonni yoza olaman. Ishonmaysizmi? Qarang, ONA! ONA so'zi buyuk-da. Bugun uyga borib oyimlarga shu so'zni o'z qo'lim bilan yozib bermoqchiman. Oyimlar xursand bo'larmikanlar?

-Albatta xursand bo'ladilar.

-Keyin esa ularga atab yodlagan she'rimni aytib beraman.

-Islombek, kelajakda o'zing ham buyuk insonlardan biri bo'lib ulg'aygin!

GULYUZ.

Biz 14 avgust kuni barvaqt «Paxtakor» metrosi yonidagi avtostansiyada yig'ildik. Hamma to'plangach, bizni guruhlariga bo'lib, avtobuslar tomon yo'naltirishdi. Har kim ota-onasi bilan xayrlasha boshladi, ko'ngli bo'shroqlar yig'lab ham olishdi. Avtobuslarga o'tirib, yo'lga tushdik. Oyna ortidagi manzaraga maftun bo'lib, yetib kelganimizni sezmay ham qolibman. «Chotqol» oromgohi bizni o'z bag'riga oldi. Ha, biz oromgohga yetib keldik, ammo hech birimiz dam olish to'g'risida o'ylamasdik ham. Axir biz bu yerga «ASPnet» tarmog'iga kiruvchi maktablarning vakili bo'lib kelganimiz. Maqsadimiz - bilim olish, Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlaridan kelgan tengdoshlarimiz bilan fikr almashish. Oromgohda O'zbekistonning barcha viloyatlaridan - Tojikiston, Afg'oniston, Qirg'iziston va Ozarbayjon respublikalaridan kelgan bolalar yig'ilishgan edik. Har kuni soat 9.00. dan 16.00. gacha o'quv seminarlari, debatlar, tanlovlar o'tkazilar edi.

Seminarlarni PSI, UNHCR, UNICEF, «Kamolot», Hukumatga qarashli bo'lmagan «Sog'lom avlod

uchun» fondi, EBBT kabi tashkilotlardan kelgan mutaxassislar olib borishardi. Shuningdek, seminarlar davomida BMT modeli ham o'tkazildi. Biz iqtisodiy va ijtimoiy kengash modelini o'tkazdik. 250 nafar ishtirokchilar 5 kishidan iborat guruhlariga, kotibiyatga bo'lindik.

SAFAR AJOYIBOTLARI

Kengash raisi va uning yordamchilarini sayladik. Har bir guruh kengashga a'zo

rezolyutsiyamizni qabul qildik. Modelning har bir ishtirokchisiga sertifikat berildi. Oromgohimizga mehmonlar tez-tez tashrif buyurib turishardi. Shular qatorida Ahmad Jamoliy kabi hurmatga sazovor insonlar bilan bo'lgan uchrashuvlar har birimizning qalbimizda o'chmas iz

qoldirdi. Ketish oldidan biz o'z parlamentimizni saylovlar orqali tuzdik.



mamlakatlardan biri nomidan «Markaziy Osiyodagi ekologik muammolar va ularni yechish yo'llari» to'g'risida bayonnoma berdi. Kunning oxiriga borib biz o'z

Yangi saylangan parlament a'zolari «Xalqaro yoshlar oromgohi» nizomini qabul qilishdi. So'ng, o'quv oromgohining har bir ishtirokchisiga sertifikatlar berildi. Shu tariqa 11 kun davom etgan

Taassurot

«Kamolot», EBBT, Yunesko ishlari bo'yicha O'zbekiston milliy komissiyasi, Hukumatga qarashli bo'lmagan «Sog'lom avlod uchun» fondi, «ASPnet» tarmog'iga kiruvchi maktablar tashabbusi va ko'magida uyushtirilgan VII Xalqaro yoshlar o'quv oromgohi o'z ishini tamomladi. Oromgoh tashkilotchilari shu qisqa fursat ichida o'z oldilariga qo'ygan maqsadlari, ya'ni, bizga yangi bilimlar berish, turli millat bolalari o'rtasida do'stlik ko'prigini o'rnatish, muammolarni birga, hamjihatlikda yechish, yutuqlardan birga quvonishni o'rgatish, atrofimizdagilar haqida qayg'urib, ertangi kunni o'ylab yashashni o'rgatishga erishishdi. Har birimiz bu oromgohdan yangi va juda muhim bilimlar, yangi do'stlar va bir dunyo taassurotlar bilan, olgan bilimlarimizni maktablarimizda tengdoshlarimizga yetkazib, hayotga tadbiq etish, boshlagan ishlarimizni davom ettirish istagi bilan qaytdik.

Durdona AHMEDOVA,
Ijtimoiy yo'nalishdagi
Respublika maxsus
gimnaziyasining 11 - sinf
o'quvchisi.

G'OYA AMALIYOTGA OSHGANDA

(Sergey Lebedev 13.07.1874 - 02.05.1934 y.)

Oldinda qo'lida ma'lumotnoma tutgan bir kishi borardi. Kimdir avvaldan ehtiyot shart deb shunday qilishni maslahat bergan. To'g'ri-da, ko'chadagi bunday yurishga tartibot posbonlari qiziqib qolishi ham mumkin, albatta. Keyin esa kichik bir guruh po'stinlarga burkangan kishilar avtomobil pokrishkasini faxr bilan ko'tarib borishardi. Uni oddiy emas, oltin deb aytsa ham bo'ladi. Shu paytgacha u chetdan dollar hamda funtlarga sotib olinardi. Mana endi Leningraddagi «Qizil uchburchak» zavodining dastlabki pokrishkasi dunyoga keldi. U esa akademik Sergey Vasilyevich Lebedevni usuli bo'yicha olingan ilk sintetik kauchukdan olingan edi. Bu voqea 1931 yil boshlarida, sovuq kechalardan birida ro'y berdi. Shu hodisaning ulkan ahamiyatini anglab yetish uchun esa olimning hayot yo'liga, ixtiroga qanchalik mashaqqat bilan yetib kelganiga bir nazar tashlab ko'raylik.

Sergey Lebedev 1874 yili Lyubling shahrida, ruhoniylar oilasida tavallud topgan. U bolaligida muloyim tabiatli, tengqurlariga xos bo'lmagan tarzda jiddiy va kamgap edi. Tengdoshlari qatori biron janjalga aralashganini hech kim ko'rmagan, chuqur o'y-xayollar og'ushida nimalarnidir orzu qilib yurardi. Masalan, osmonda qushlardek parvoz qilish uchun bir gal bog'da yolg'iz o'zi unga qanot berishini so'rab, butun borlig'i bilan

yalinib yolvorgan. Fikriy yig'inchoqlik, kamgaplik, orzu-xayolga berilish kabi xususiyatlar unda bir umr saqlanib qoldi. Olimni yaqindan yaxshi bilmaganlar unga baho berishda adashib qolishlari hech gap emasdi. Masalan, boshini mag'rur tutib, hatto sal orqaga tashlab yurish takabburlikdek bo'lib tuyular, aslida esa u nihoyatda kamsuqum va o'ta tortinchoq edi. Seryoja gimnaziyada o'qib yurgan chog'laridayoq kimyogar bo'lib yetishishni ko'ngliga tugib qo'ygan edi. Keyin Peterburg universitetiga o'qishga kirdi. Mendeleyev ma'ruzalarini tingladi, diplom ishini Favorskiyning tajribaxonasida bajardi. U bir vaqt uylandi, ammo oilaviy hayotdan baxt topmadi.

QIMMAT TUNUKA

Qadimgi Xitoyda kambag'al kishilar tunuka idishda ovqat yeganlar, boylar esa chinni idishda. Bir zamonlar yasalgan qadimgi bu tunuka idishlar bir avlodgagina emas, balki o'zidan keyingi ko'pgina avlodlarga ham xizmat qilgan. Keyinchalik esa ularning o'rnini arzon alyumin va plastik idishlar egalladi. Shu bilan birga yangi xastaliklar, jumladan, kamqonlik paydo bo'ldi. Xitoy tabobati yaratgan, joriy qilgan va qadimda shifokorlar tavsiya qilgan tunuka idishlar bekorga yaratilmaganligi olimlarni o'yantirib qo'ydi. Chunki «qon yangilanishida temir moddasi ishtirok etmasligi aqlga to'g'ri kelmaydi», albatta. Hozir Xitoyda tunuka idishlar bahosi ancha yuqori. U qancha qadimgi bo'lsa, narxi shuncha qimmat turadi. Bunday idishlarni faqat puldorlar sotib olishi mumkin.

Kambag'allar esa endi alyumin va plastik idishlarini beziyon bo'lgan chinni idishlarga almashmoqda.



ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu rukni Rustam Obid olib boradi.

Lekin menga faqat kimyo fanigina baxt bera oladi, polimerlash jarayonini sevishning o'zi kifoya, deb astoydil ishonardi. Olim organik kimyoni o'z iborasi bilan aytganda, aksari hollarda beqaror bo'lgan moddalar sohasini tanladi. Uning tadqiqotlari ildizi Butlerovning ishlariga borib taqaladi, zotan, bu ishlar yana o'zining aytishicha, ajoyib sezgirlik o'ta kuchli hissiy namunasidir.

Lebedevning yoshlik yillari bag'oyat asabiylik ichra tashvishlarga ko'milib o'tdi. Universitetni tugatgandan so'ng, uni kafedrada qoldirishmadi, binobarin, u endi tadqiqotlarini davom ettirish imkoniyatiga ega emasdi. Goh sovungarchilik zavodida, goh rel's po'latini tadqiq etish komissiyasida ishlar, yana universitetga yugurib, oddiy laborantlik qilardi. Oilasi g'alvaga to'la, hamma ishdan omadi ketgan, qayoqqa qaramasin, boshi berk ko'chaga kirib qolardi. Ana shu og'ir pallada Lebedevga kimyogar olim, san'at shaydosi Kurbatov yordamga keldi. Uni Italiyaga olib ketib, Rim, Florensiya, Venetsiya va boshqa shaharlar bo'ylab quvnoq sayohatlar uyushtirdi. To'g'ri, Lebedevning ruhiyatini Italiyaning o'zidan ham ko'ra musavvira Anna Petrovna Ostroumova bilan uning muhiti ko'proq mustahkamladi. Bu muhit simfonik konsertlar, mehmonxonadagi osuda oqshomlar va dilkash suhbatlar musavvirning yaqin do'stlari bo'lg'usi mashhur rassomlar Benua, Samov, Lansere, Petrov Vodkinlardan iborat edi. Lebedev bu samimiy davrada yayrab, o'zining ruhiy muvozanatini tiklab oldi. Yana ikki yildan keyin esa Anna Petrovna uning rafiqasiga aylandi.

(Davomi bor.)

TARBIYACHILAR HAM «TONG YULDUZI»NI O'QISHADI

Qo'ng'iroq

Gazetxonlarga ma'lumki, «Tong yulduzi» sahifalarida «Bolaning tili shirin», «Kichkina demang bizni», «Ukam bog'chaga boradi» kabi ruknlarimiz bor. Ushbu ruknlar orqali bog'cha yoshidagi kichkintoylar hayoti keng yoritib boriladi.

Bu safar «Qo'ng'iroq»da - Toshkent viloyati, Xalq Ta'limi Boshqarmasi, maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'i Ra'no opa To'laganova:

- Viloyatimizda 565 ta bolalar bog'chalari faoliyat ko'rsatadi. Shulardan uchta xonadon bog'chalar hisoblanadi. Biroq, bu ko'rsatkich juda kam. Kuzatuvlardan ma'lumki, xonadon bog'cha tarbiyalanuvchilari ancha ziyrak, tetik bo'lib ulg'ayadi. Buning bosh sababi, xonadon bog'chada bor-yo'g'i yetti yoki o'n nafar bola tarbiyalanadi. Bu esa tarbiyachining har bir bola bilan jiddiy shug'ullanishiga imkoniyat yaratadi.


Viloyatimizda ana shunday xonadon bog'chalarini ko'paytirish niyatidamiz. Shu maqsadda, Xalq Ta'limi Vazirligi hamda

YUNISEF tashkiloti tashabbusi bilan o'n yetti nafar tarbiyachilar Xorazm viloyatining Xiva shahrida bo'lishdi. U yerdagi xonadon bog'chalarining maqtovga sazovor ish tajribalari bilan o'rtoqlashib, amerikalik Mercedes Charlz bilan ham suhbatlashib qaytishdi.

Xonadon bog'chalari haqida «Tong yulduzi» gazetasi

sahifalarida ham ko'plab maqolalar yoritilgan. Biz har yili boshqa gazeta-jurnallar qatori «Tong yulduzi»ga obuna bo'lamiz. Keyingi paytlarda gazetaning rangli chiqishi bolajonlarimizni yanada qiziqtirayпти.

Ikki oyda bir marotaba bo'ladigan tumanidagi uslubchilar yig'ilishi ham shu kunlarda bo'lib o'tadi. Yig'ilishda asosiy masala - obuna. Tarbiyachilarimiz «Tong yulduzi» gazetasiga befarq emaslar. Ular yuqoridagi ruknlar ostidagi maqolalardan foydalanadilar va o'z mashg'ulotlarini yanada boyitib boradilar. Shuning uchun ham har bir bog'cha albatta bir donadan «Tong yulduzi»ni oladi.



SEVGI O'YINCHOQ EMAS

Ko'pchilikka: «Birinci muhabbatigizni eslay olasizmi?», deb savol bersangiz, beixtiyor maktab chog'larini yodga olishi tayin. Chunki ko'pchilik ilk sevgisini maktabda topadi. Kimlardir unga sodiq qolsa, kimdir...

Men sizlarga so'zlab beradigan voqea ham, o'sha «kimdir»larga tegishli bo'lsa, ajabmas.

Nozima endigina sakkizinchi sinfda o'qir edi. Undan bir sinf yuqori o'qiydigan Jamshid ismli bola Nozimani yoqtirib qolgani haqida butun maktabga jar soladi. Nozima bu gapni eshitgach, dovdirab qoldi. Jamshid esa uni ta'qib qilishni qo'ymasdi. Nozima oxiri Jamshidga ijobiy javob bergach, ular uchrashib yurishdi. Bu «yangilik» maktabda doston bo'ldi...

Keyinchalik Nozima Jamshidni o'zgarib qolganini sezib qoldi. Uni nima uchun bunday bo'lib qolganini tushuna olmay, siqilib yurardi. Bir kuni Nozima xolasinikiga ketayotib Jamshid



bilan bir qizni ko'rib qoldi va hayron bo'ldi. Nahotki osmondagi yulduzni uzi b berishga

tayyor bo'lgan Jamshid shunday qilsa?

Nozima uni biror tanishi bo'lsa kerak, degan o'y bilan o'zini yupatdi. Jamshidni ko'rganda uni aytishga jazm qildi. Lekin Jamshid u bilan boshqa uchrasha olmasligini aytib, Nozimaning yuragini pora-pora qildi. Nozima endi bosh ko'tarib yura olmasdi. U endi qalbida muhabbat degan so'zning o'rnini nafrat va qahr tuyg'ulari egallab olganligini sezdi. Chunki uning ilk muhabbati xor bo'lgan, toptalgan edi...

Nodira HOSHIMOVA,
Shayxontohur tumani,
Huvaydo mahallasi.

Qulog'ingga gapim bor



MAHALLAMNING OQSOQOLI

Mahallamning oqsoqoli,
Ko'pni ko'rgan dono kishi.
Hamma uchun ochiq qo'li,
O'rnak bo'lur har bir ishi.
Barcha baxtli bo'lsin, deydi,
Mahallamning g'amin yeydi.
Mahallam deb qilar mehnat,
Mehnatini qilmas minnat.
Savob ishga bo'ladi bosh,
Hurmat qilar qari-yu yosh.
Bor kuchini ayamaydi,
Tinim bilmas ko'makdosh.

Shahnoza XOJIMATOVA,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq
tumanidagi
39 - o'rta maktabning
9 - sinf o'quvchisi.



DO'STLIKNI PUL BILAN O'LCHAMANG

Yaqinda mening bir dugonam oldimga kelib boshidan kechirgan kunlarini aytib berdi. Mening maqolalarim gazetada chop etilayotganini eshitib, mening gaplarimni ham yoz, toki tengdoshlarim bu xatolikka yo'l qo'yishmasin, dedi. Men uning hikoyasini qo'limdan kelgancha qog'ozga tushirdim.

Keyingi paytlarda «boy oila» yoki «o'rtacha oila» degan gaplar maktabimizda ko'p marta ishlatiladigan bo'lib qoldi. Men esa sinfimizdagi barcha qizlarga barobar qarardim. Hech kimni ajratmasdim ham. Ularning orasida Durdona degan qiz o'z xulqi bilan barchadan ajralib turardi. Men u bilan qalin dugona

edim. Hammaning bizga havasi kelardi. U bilan bir partada o'tirardik. Hatto maktabdan keyin ham darslarni birga tayyorlardik. Keyingi ikki yil ichida dadamning ishlari orqaga keta boshladi. Shu qiynalib yurgan paytlarimda Durdona menga dalda

bo'ladi, deb o'ylagandim. Ammo u men bilan kundankunga kam gaplashadigan, tanaffuslarda boshqa qizlar bilan ko'chaga chiqib ketadigan bo'lib qoldi. Men unga biror gap aytib, ranjitib qo'ydimmi, deb o'yladim. Oxiri, bir kuni uning oldiga kirib, nima uchun bunchalik o'zgarib qolganini so'radim. U bo'lsa, uyalmay-netmay, men boshqa, sendan badavlatroq qiz bilan dugona bo'laman, dedi. Shu paytda biron boshimdan sovuq suv quygandek bo'ldi. Nahotki, do'stlikning qadru qimmatini pul bilan o'lchansa?

Dugonamning bu gaplaridan ta'sirlanib ketdim. Pul, boylikni topish oson, lekin sen uchun o'zini qalqon qiladigan do'st topilavermaydi. Shuning uchun do'stlikning qadriga yetaylik.

Kamola ERGASH qizi,
Toshkent viloyati,
Toshkent tumanidagi A.To'laganov nomli
7 - o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi.



Sportning mashaqqati erta boshlanadi. Tinimsiz harakatdan, mas'uliyatidan qochmagan insongina omadga yor bo'ladi. Sport shuning uchun ham jasorat, m a t o n a t r a m z i g a qiyoslanadi.

Erta tongda badantarbiya mashqlarini bajarish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Ammo, tengdoshingiz Arslon Galimov buning uddasidan chiqqaniga ham bir yildan oshdi. Keling, avvalo bo'lajak futbolchi tengdoshingiz — Arslonni sizlarga tanishtiray.

U 1992 yil 13 fevralda tug'ilgan. Poytaxtimizdagi 233- maktabning 5- sinf o'quvchisi. Hamda «Paxtakor» futbol

maktabining a'zosi va guruh sardori.

Arslon tabiatan juda kamgap bola. Sportchilar kabi savol- javoblarga ham no'noq. Lekin jamoadoshlari uni hozirdanoq mohir hujumchi deb tan olishgan. Murabbiy Robert Gay hamma shogirdlarini yaxshi ko'radi, ammo,

ARSLONNING HAVASI



Arslon Galimovdan umidlari katta. -Mashg'ulotlarga o'z vaqtida kelishi, musobaqalarda munosib o'rin ko'rsatayotganligidan xursandman,- deydi u.


- **Maktabda jismoniy tarbiya darsi qanday o'tiladi?**

- Ustozimiz qiziqarli olib borganligi uchun ham sinfimiz bilan sportga mehr qo'yanmiz. Maktabdagi sport zalimiz, maydonimizda qulay imkoniyatlarimiz yetarli,- deydi Arslon. - Ammo maktabimizda suv havzamiz boru, suvi yo'q-da...

- **«Paxtakor» stadionidagi mashg'ulotlarga kelib-ketish qiyin emasmi?**

- O'rganib qolganman. Kunning birinchi yarmida maktabdagi darslar, ikkinchi yarmida esa deyarli har kuni futbol mashg'ulotlariga qatnash men uchun huzur bag'ishlaydi.

- **Qaysi futbolchilarga havasing baland?**



- «Paxtakor» futbolchilaridan Server Jeparov, Mirjalol Qosimov va Zayniddin Tojiyev hamda xorij futbolchilaridan Zinedin Zidan, (Fransiya), Raul Gonsales (Ispaniya), Roberto Karloslarga havas qilaman.

- **Arslon, havas qilsang, yetasan murodga! Biz ham sening niyatlaringga tilakdoshmiz.**

Ma'mura MADRAHIMOVA.

QIMMATGA TUSHGAN O'YIN

Men 9-sinfda o'qiyman. Darsdan keyin uyga kelib, ba'zan dars qilsam, ba'zan mahallamiz bolalari bilan futbol o'ynayman. Bir kuni qo'shni mahalla bolalari bilan futbol o'ynamoqchi bo'ldik. Bolalar ikki guruhga bo'linishdi. O'yin qizigandan qizirdi. Avval bizning qo'limiz baland kela boshladi. Biz xursand edik. Lekin xursandchiligimiz uzoqqa cho'zilmadi. Qo'shni mahalla bolalari ustma-ustiga ikkita gol urishdi. Bundan hammamiz ranjidik. Keyin biz ularga hujum boshladik. Men to'pni sinfdoshim Ravshanga uzatdim va oldinga qarab yugurdim. U esa hadeganda to'pni oshirmadi. Men jahl bilan uning oldiga yugurib borib, to'pni olish maqsadida bor kuchim bilan to'pni tepmoqchi bo'lsam, oyog'im nogoh Ravshanning oyog'iga tegdi-yu, u oyog'ini changallaganicha o'tirib qoldi. Lekin cho'loqlansa-da, o'ynadi. Men uning qayta yurib ketganiga unchalik e'tibor bermagandim. O'yin oxirigacha uning oyoqlari shishib ketdi. Xullas, biz o'yinda g'olib bo'ldik. Ertasi kuni Ravshan maktabga bormadi. Indiniga ham. Undan xavotir ola boshladik. Ikkita sinfdoshim ularnikiga borib, Ravshanning oyoqlarini gipslab qo'yishganini aytishdi. Yuragim orqaga tortib ketdi. Agar u ota-onasiga meni tepib yuborganimni aytsa, gap eshitishim tayin edi. Sinfdoshlarim uni ko'rishga borishdi. Men bora olmadim. To'g'rirog'i, vijdonim qiynalardi...

Ravshan uyidagilarga ham, sinfdoshlarimga ham yiqilib tushdim, debdi. Bu gapni eshitib, yana ham mulzam bo'ldim. Keyin o'zim Ravshanlarnikiga bordim. Undan kechirim so'radim. Ammo u: «O'yinda bo'ladi-da, jo'ra», deb qo'ydi.

*Davron ZOKIROV,
Toshkent viloyati,
Yuqori Chirchiq tumani.*

Keyingi yillarda mamlakatimizda mahalla bolalari o'rtasida «Futbolimiz kelajagi» deb nomlangan Respublika kubogi turnirining o'tkazilishi yaxshi an'anaga aylanib qoldi. Uch bosqichli bu xayrli tadbir bolalarning yozgi ta'til kunlarida boshlangandi. Ayni kunlarda ushbu musobaqalarning yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.

Turnirning 11- 12 yoshli guruhlar o'rtasida yakunlangan musobaqasining yarim final va final bahslari poytaxtimizdagi MHSK va Markaziy «Paxtakor» o'yingohlarida o'tkazildi. Biz ana shu turnirda ishtirok etgan umidli sportchilar va ularning murabbiylari bilan hamsuhbat bo'ldik:

**Kamoliddin BEKYOZOV,
Xorazm viloyati, Xazorasp tumani,
Erkin shirkat xo'jaligidagi «Avshar»**

MAHALLA BOLALARI - «PAXTAKOR» DA

mahallasi murabbiyi:

- Bugun shogirdlarimning kayfiyati a'lo. Chunki ular sevimli «Paxtakor» hamda «O'zbekiston» milliy terma jamoalarining asosiy uchrashuvlari o'tkaziladigan o'yingohda to'p surishdi.

Bolalarning sportga bo'lgan mehri nazarimda, yanada ko'tarildi. Mahallamizdagi har bir xonadonga sport shukhi kirib borayotganligidan ota-onalar ham birdek xursand. Zero, sport bilan samimiy do'stlashgan farzandlarimizda dovyuraklik, mehnatsevarlik, vaqtning qadriga yetishdek fazilatlarining shakllanishi tayin.

**Mirkamol QURBONOV,
Xorazm viloyati, «Avshar»
mahallasining yosh futbolchisi,**



bilan bunday katta maydonda to'p surishni xayolimizga ham keltirmagandik. Buning uchun ushbu turnirni tashkillashtirgan hukumatimizga katta rahmat. Bunga javoban, biz bolalar o'z bilimimiz, chaqqon harakatlarimiz bilan javob beramiz. Yurtimizda bolalar sportiga berilayotgan ahamiyat barchamizni ruhlantirmoqda.

**Abduvosit QODIROV,
Oqqo'rg'on tumanidagi «Usta Normat»
mahallasi oqsoqoli:**

- Mahallamizda ikki mingdan ortiq aholi yashaydi. Mahalla hududi tuman markaziy maydoni yaqinida joylashgan. Sport o'yingohida bolalarimizning bo'sh vaqti unumli o'tayotganligidan biz kattalar xursandmiz.

Chindan ham sport bolalarni do'stlikka, hamkorlikka chaqirishiga shubha yo'q.

Mahallamizdagi o'rtog'larim Bahodir, Elbek, Sanjar, Farruhlar

**Aziz O'TAMISHEV,
Oqqo'rg'on tumanidagi
49- maktabning 6- sinf o'quvchisi:**

BIR TUTAM QUYOSH NURI

Quyosh osmondan turib doim o'zidan nur taratib turishini hamma biladi. Bir kuni quyoshdan chiqqan bir to'p nur yerga qarab yo'l olibdi. Shulardan bir qanchasi o'lkamizga tushishibdi. Qarashsa, to'rt tomoni tog'lar bilan o'ralgan, daryolarida suvlar mavj urib oqib yotgan, ko'm-ko'k qirlarida qo'yu qo'zichog'lar mazza qilib o'tlab yurgan, keng dalada paxta va boshqa ekinlar avj olib o'sayotgan, bog'larida turli mevalar g'arq pishgan ajoyib diyor ekan. Shunda nurlar baravariga:

-Yashasin, ajoyib o'lkaga kelib tushibmiz!- deb xursand bo'lishibdi.

Keyin:

-Xo'sh, endi nima qilamiz?- deb o'z-o'zlaridan so'rashibdi.

-Kelinglar, huv tog'lar cho'qqilaridagi qorlarni eritamiz, daryolarning suvlari ko'payadi,- debdi nurlardan bir qanchasi.

-Mayli, shunday qilganimiz bo'lsin,- deyishibdi o'sha bir to'p nurlar va tog'larning cho'qqilaridagi qorlarni eritishibdi. Natijada daryolar yanada sersuv bo'libdi.

Bir to'p nurlar esa:

-Kelinglar, dalalarga boramiz, u yerda ekinlarni o'stiramiz,- deyishibdi.

-Mayli, - deyishibdi o'sha nurlar va keng paxtazor maydonlarga, bug'doyzorlarga, polizlarga singib, u yerlardagi paxta, bug'doy va boshqa ekinlarning, qovun-tarvuzlarning pishishlariga ko'maklashishibdi.

Bir tutam nurlar esa o'zaro chug'illashib:

-Biz bog'larga borib, mevalarni pishiramiz,- deyishibdi. So'ng ular bog'larga tushib, olma, nok, anor, anjir, o'rik, uzum, shaftoli, olxo'ri va boshqa mevalarning hil-hil pishishlariga xizmat qilishibdi.

Bu nurlar ichida bir tutamgina sho'x, erkatoynur bor ekan, u uyoq-buyoqni tomosha qilaman, deb alahsib, sheriklaridan qolib ketibdi. Keyin nima qilishini bilmay turgan ekan, bir kichkina qizchaga ko'zi tushibdi. Nurning shu qizcha bilan o'ynashgisi kelibdi-yu, uning yuziga tushibdi. O'zicha oftob nuridan qochib, qo'lidagi soyabonini ko'tarib, yuzini to'sib olibdi. Nurga bu yoqmabdi va qizchani soyabonidan o'tib borishga harakat qilibdi. Qizcha oftob nuridan qochib, o'zini daraxt soyasiga olibdi. Nur esa o'z sho'xligini qo'ymasdan daraxt yaproqlari orasidan qizchani qidirib topib, uni qizdira boshlabdi. Nihoyat oftob nuridan qizchani kichkina burunchasi ustida bir tomchi ter paydo bo'libdi.

-Yashasin!- debdi oftob nuri, - men manavi qizchani boplab terlatib yubordim!

Ammo qizcha cho'ntagidan ro'molchasini olib, burnining ustidagi terni artibdi- qo'yibdi. Sho'x nurning butun harakati bekor ketibdi. Axir, har bir odam singari nur ham biror foydaliroq ishga urinishi kerak edi-da!

Muxtor XUDOYQULOV.




TOSHBAQA

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda kattakon bir ko'lda barcha jonzotlar ahilinoq yashashar ekan. Ularning orasida qurbaqaga o'xshab ketadigan g'alati jonivorlar ham bor ekan. Lekin qurbaqalardan biroz chaqqonroq ekanlar. Ilonlar qurbaqalarni osongina tutib yeyishar, bu jonzotlarni esa quvib yeta olishmas ekan. Shunday bo'lsa-da, ular o'zlarining tashqi ko'rinishlaridan noliyverishar ekan. Chunki ular qurbaqalarga o'xshashni sira-sira istashmas ekan-da.

Shuning uchun ham Oллоhga «Tashqi ko'rinishimizni o'zgartirib qo'y», deb iltijolar qilishar ekan. Ularning nolalari, istak xohishlari ijobat bo'lib, toshdan kosa yasalibdi va uning ichiga haligi jonzotlar qo'yib yuborilibdi. Bu yangicha ko'rinish o'zlariga ham ma'qul bo'lgan jonzotlar uylariga qaytishibdi. Lekin tosh

kosaning og'irligi bois, ko'p yurmay, tezda charchab-horib qolishibdi. Yukning og'irligidan ovozlari ham chiqmashdi. O'sha-o'sha ular yo'lda, hali veri o'zlari yashaydigan ko'lga yetib kelishmasa kerag-ov. Namlari esa TOSHBAQA....

Sharofat JO'RAYEVA,
Farg'ona viloyati, Quvasoy shahar,
Yuqori volik qishlog'i.



Kitob — oftob

HAYRATLAR DUNYOSI

Adabiyot - siru sinoatlar, hayratlar dunyosi. Bu dunyoga kirgan kishi borki, ajoyib fikrlardan, go'zal tuyg'ulardan, g'aroyib tafakkurlardan sarmast bo'ladi. Adabiyot - she'riyat, san'at olami! G'oyat nafis, latif dunyo u. Uning olamiga kirsam, tuyg'ularimga mahliyo bo'lgancha xayol daryosiga cho'mib ketaman. Xayolimda, quloqlarim ostida ma'yus bir kuyning nidosi, tuyg'ularimning jo'shqin sadosi yangrayotganini sezaman. Go'yo men adabiyotning turfa chechaklar bilan bezalgan bir bo'stoniga kirib qolgandekman. Adabiy xayollar og'ushidan chiqib, o'z-o'zimga savol beraman: «Adabiyot nimaki, sen unga shunchalik qiziqasan?»

Adabiyot qalblar uyg'oqligi, fikrlar teranligi, hayot go'zalligidir. U o'quvchini ezgulik, oliyjanoblik, fozillik bog'i tomon yetaklaydi. O'quvchi ana shu bog'dan ma'naviy durdonalarni qalbi to'riga joylaydi. Murg'akkina qalbda adabiyotga bo'lgan havas, mehr hissi kurtak yozadi. Bir kun kelib, bu kurtaklar g'uncha yozsa, ajab emas.

Adabiyotning o'ziga xos qiyinchiliklari, mashaqqatlari ham bor. Uning noyob durdonalarini yuzaga keltirgan qalam ahlining talantiga tahsinlar o'qiyman. Men shu o'rinda g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyni yodga olishni lozim topdim. Navoiy bobomizning turkiy tilda yozilgan «Xamsa»lari hanuzgacha adabiyotimizning nodir durdonalaridan biri bo'lib kelmoqda. Yoki XX asr namoyondalari Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yozuvchi va shoirlarning asarlarini kim sevib o'qimaydi?! Ularning asarlari kishi qalbiga olam-olam nur, huzur-halovat bag'ishlaydi.

Jonajon O'zbekistonimiz Mustaqillikka erishgandan so'ng ona xalqimiz ulug'vorligi, yurt go'zalligi, istiqloq mafkurasini tarannum etuvchi asarlar juda ko'plab yaratildi. Ularning barchasini o'qib ulgurish qiyin, albatta. Mening fikrimcha hozirgi kunda o'quvchiga axborot-malumotlar emas, o'quvchini hayratga soladigan, yuraklarni junbushga keltiruvchi, shuurni teran fikrlar bilan boyitadigan asarlar kerak. Agarda ijodkorlar tomonidan mana shunday asarlar yaratilsa, bu asarlar adabiyotimiz xazinasidagi bebaho asarlarga aylanardi. Zero, men tasavvurimdagi asarlarni hozircha orzu qilaman, xolos.

Hozirgi kunda barcha sohada bo'lgani kabi adabiyotimiz ham rivojlanish yo'lida. Ammo shu kunlarda kishini hayratga soladigan, zavq bilan o'qiladigan asarlar kam yaratilayotgani sababli, ayrim kishilar o'rtasida «Adabiyot o'ladi» degan fikrlar, g'oyalar paydo bo'lmoqda. Biroq, barcha ijodkorlar qatori taniqli yozuvchi Shukur Xolmirzayev bu fikrga qarshi chiqib: «Adabiyot hech qachon o'lmaydi», degan fikrni bildirdilar. Men ham bu fikrga albatta qo'shilaman. Bizning qalbimizning nuri, vujudimizning g'ururi - sevimli adabiyotimiz hech qachon o'lmaydi, u hayotimizda biz bilan birga mangu yashaydi.

Feruza MURODOVA,

Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi Mirzo Ulug'bek nomli

22 - maktab o'quvchisi.



O'CH

Kunlardan bir kun

Ilon... Ko'rding-u tanangga titroq yugurdi. U tandir atrofida o'ralashib yurardi. Rangi kesakning rangidek bor. Qo'rqdim, lekin masofa ancha yiroq. Agar tashlansa «ura» solib qochaman degan o'y bilan o'zimni tayyor tutdim. Ilon menga e'tibor ham qilmasdan yonimdan o'tib, sudralgancha tandir ostidagi katakchaga kirib ketdi. Biroz o'tgach, yana qaytib chiqdi. Tandirga suyalib turgan kesovga shiddat bilan o'ralashib, boshini u yoqqa, dumi bu yoqqa tortildi. Bir necha bor shu holat takrorlandi. U uyasiga kirib ketganidan foydalanib, kesovni irg'itib yubordim. Ilon qaytib chiqdi-yu, kesovni yo'qligini ko'rib garangsib qoldi va ayvonning ustuniga qarab o'rmalay ketdi. Afsus, yetolmadi. U to'xtab qoldi. Ancha vaqt o'tganidan keyin borib qaragam qimir etmasdan, yerda o'lib yotardi.

Hayron qoldim. Nega bunday bo'ldi ekan-a, deya yon-atrofimga qarab, tandir tagidagi katakchani ko'zdan kechirdim. Ne ko'z bilan ko'rayki, u yerda arilarning uyasi bo'lib, xuddi yanchilgan kabi to'zib yotar, atrofida arilar g'ujg'on aylanishardi. Fikrimcha, ilon arilarga hujum qilgan, ularni qisib o'ldirolmagani uchun yopirilib, chaqib tashlashgan.

Abror UMARQULOV,
O'zMU talabasi.



Shoirilar bolalarga

Anvar OBIDJON

HARFLAR HAQIDA
CHO'PCHAK

Ana, turar boshliq «A»,
Alpdek kerib oyog'in.
Ilon izlar soyda «I»,
Inga suqib tayog'in.



Seskandi-yu suvilon,
Suvda qochdi «S» bo'lib.
G'oz kabi «G» don cho'qir,
«G'oq» der dilga zavq to'lib.

«B» - baqadek qo'shpufak,
«Z» - zinaning zo'ridir.
«U» - uyimiz ustida
Uzungina mo'ridir.



«Ye» aslida eskirgan,
Egasi yo'q panshaha.
«O»ning og'zi osh tilar,
Ochiq doim ishtaha.

«G» - Gulixon pidjagi,
Uni go'zal aylagan.
Ikki har «Ch» bo'lib,
Chiqib keldi chayladan.

Qulog'iga «Q» xonim,
Qashqarbaldog taqqanmish.
Ko'ksiga karnay ilib -
Yurish «K»ga yoqqanmish.

O'ng qovog'i uchsa «O»,
«Sh»ga sharhlar shivirlab.
«X»- xo'rozning patini
Qaychilar xit g'ijirlab.



«M» - mushukdek dingquloq,
«Miyov-miyov» baroqdir.
«F» - Farida faxr etgan,
Sopi fason taroqdir.

«J» - Jayhunning suvida,
Turgan jajji qarmoqcha.
«N» - yo siniq narvondir,
Yoki nozik ilmoqcha.


Peshi go'yo pirpirar,
Ko'rinishdan «P» bayroq.
Qornin devdek do'mpaytib,
Dong qotgan «D» baqaloq.

«Y» - Yo'ldoshvoy yo'qotgan,
Yog'och cho'zma ayrisi.
«H» - Husantoy ukamning
Xuddi beshik-so'risi.

Bodring rasmin chizar «ng»
Qoyillatib, qarang, hov.
Razm solar rasmga
«R» oldinga bosib rov.

«T» - hali sim tortilmay,
Tip-tikturgan simyog'och.
«V» - Vatanga vizillab,
Sho'ng'iyotgan qaldirg'och.

«L»- lug'atda jim yotar,
Likillatmay dumini.
Ha, boshliq «A» xush ko'rmas
Harflarning shumini.



VAZIR NIMA DEDI?

Bir mamlakat podshosi betob bo'lib qoladi va tabiblar unga sehrli gulni hidlasagina tuzalishi mumkinligini aytishadi. U gulni esa boshqa mamlakatda 40 pari qiz qo'riqlab o'tirar va u yerga gul ilinjida borgan odamlarni dorga ostirib yuborishardi. Podshoning navkarlari-yu a'yonlari borib, gulni ololmay nobud bo'laverishdi. Shunda uning bir dono vaziri ham yo'lga chiqdi. O'sha mamlakatga borib, parilar malikasining qulog'iga bir narsa deb pichirladi. Shunda malika unga hech narsa deya olmadi va u gulni olib kelib, podshoni o'limdan saqlab qoldi.

Savol: Vazir malikaning qulog'iga nima degan?

Bahodir HAKIMOV,
Poytaxtimizdagi 116 - maktabning
7- «V» sinf o'quvchisi.

QULAY FURSAT

O'qituvchi: Bolalar, bugun biz sizlar bilan yil fasllari haqida suhbatlashamiz. Qani, kim aytadi, yil fasllari qancha? (Piyer o'rnidan turadi). Qani, Piyer?

Piyer: Yil fasllari to'rtta.

O'qituvchi: Yaxshi. Ularning nomlarini kim biladi? (Mishel o'rnidan turadi). Qani, Mishel?

Mishel: Yil fasllari: bahor, yoz, kuz va qish.

O'qituvchi: Juda soz. Nina, bahorni tasvirlab ber-chi?

Nina: Bahorda tabiat uyg'onib, daraxtlar kurtak ochadi.

O'qituvchi: Viktor, sen yozni tasvirlab ber.

Viktor: Yozda kun issiq bo'ladi. Mevalar pishadi...

O'qituvchi: Nadine, kuz qanday ko'rinishga ega?

Nadine: Kuzda barglar sarg'ayadi, kunlar soviy boshlaydi.

O'qituvchi: Denis, sen menga qishni tasvirlab ber-chi?

Denis: Qishda kunlar qisqarib, tunlar uzayadi. Dalalarni qor egallaydi, kunlar soviydi.

O'qituvchi: Juda yaxshi. Jak, sen nimaga darsimizga qo'shilmayapsan? Qani ayt-chi, olmani uzish uchun eng qulay fursat qachon?

Jak: Eng qulay fursat - bog'bon uyidaligida va uning iti bog'ida bo'lmagan paytda. (O'qituvchi boshini ushlagancha o'tirib qoladi. Jak esa indamay turaveradi).

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi

57 - maktab o'quvchisi Bibimaryam XO'JANOVAning fransuz tilidan tarjimasini.



«Motamsaro ona», «Yosh sportchi» nomli suratlarini 283-maktab o'quvchisi Malika KARIMOVA chizgan.

YONG'OQ
PACHA

Ochil dasturxon


Kerakli masalliq: 0,5 st. shakar, 200 gr. sariyog' yoki margarin, 2 dona tuxum, 1 st. maydalangan yong'oq mag'zi, 2 st. un, bir chimdim tuz.

Tayyorlanishi: Yanchilgan yong'oq mag'zini elab, ustiga un, shakar, tuz, sariyog' solinadi va pichoq yordamida qiymalanadi. Bir xil massa hosil bo'lgach, ustiga tuxum solinadi va xamir qoriladi. Xamirni 15-20 daqiqa tindirib qo'yiladi. So'ng 0,5 sm. qalinlikda yoyib, qolipda shakllar kesib chiqiladi. Ustiga tuxum surib,

maydalangan yong'oq mag'zi sepiladi yoki shakarga botirib olinadi. O'rtacha olovda qizarguncha pishiriladi.

Yoqimli ishtaha!

Go'zal ABDUSHUKUROVA,
Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi
116 - maktabning 7- «G» sinf o'quvchisi.

TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOYIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

Bosh muharrir
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«O'zbekiston»
nashriyoti matbaa
bazasida chop etildi.
Adadi - 11408
Korxonalar manzili:
700129,
Toshkent,
Navoiy
ko'chasi, 30.
Buyurtma № 7 -07
Gazetani
Muharrama
PIRMATOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Gulyuz
VALIYEVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75